



DEGS o'smirlarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari

**Norqobilova Surayyo
G'ulom qizi**

**Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrası
2-kurs tayanch doktoranti
E-mail:norkobilovasurayyo@gmail.com**

Kalit so'zlar: diqqat yetishmasligi giperaktivlik sindromi(DEGS), o'ziga bo'lgan munosabat, o'z-o'zini tartibga solish, giperaktiv o'smirlar, ijtimoiy-psixologik ko'rsatkichlar, ijtimoiy moslashuv.

Ключевые слова: синдром дефицита внимания с гиперактивностью (СДВГ), самоотношение, саморегуляция, гиперактивные подростки, социально-психологические показатели, социальная адаптация.

Key words: attention deficit hyperactivity disorder (ADHD), self-attitude, self-regulation, hyperactive adolescents, socio-psychological indicators, social adaptation.

Annotatsiya: Maqolada DEGS o'smirlarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati to'g'risida atroflicha yoritilgan, ularning o'ziga bo'lgan munosabatini empirik tahlil etish asosida ijtimoiy moslashuv xususiyatlarining ko'rsatkichlari aniqlangan.

Аннотация: В статье подробно описано самоотношение подростков(СДВГ), определены показатели особенностей социальной адаптации на основе эмпирического анализа их самоотношения.

Abstract: The article describes in detail the self-attitude of adolescents with ADHD; indicators of the characteristics of social adaptation of adults diagnosed with adhd are determined based on an empirical analysis of their self-attitude.

O'z-o'ziga bo'lgan munosabat ichki izchillikni ta'minlaydi, shaxs olgan tajriba talqinining tabiati va xususiyatlarini belgilaydi. O'z-o'ziga bo'lgan munosabat bu o'ziga va xatti-harakatlariga bo'lgan umidlarning manbai, insonni tartibga solish va o'z-o'zini tartibga solishning eng muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Dunyoning turli mamlakatlarida diqqat yetishmasligi va giperaktiv sindromli o'smirlarning o'ziga bo'lgan munosabatlarini o'rganish masalalari dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Biz DEGS o'smirlardagi o'ziga bo'lgan munosabatni o'rganish maqsadida 160 nafar DEGS tashxisli o'smirda siz o'zingizga qanday munosabatda bo'lasiz metodikasini o'tkazdik, quyidagi 1-jadvalda siz o'zingizga qanday munosabatda bo'lasiz metodining statistik ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan.

1-jadval

Siz o'zingizga qanday munosabatda bo'lasiz metodining statistik ko'rsatkichlari

		in	Maks	Macha qiymat	O'rt	Stan dart og'ish	A simmetriya	Ek ssess
Siz o'zingizga qanday munosabatda bo'lasiz	60	0,00	23,00	4500	29,1	42,6	0,579	-0,215

Yuqoridagi jadvaldan ma'lum bo'lib turibdiki statistik ko'rsatkichlar ishonchli uning assimetriyasi va eksessi normal holda va keyingi bosqich tadqiqotiga o'tishimiz mumkinligidan darak beradi.

Giperaktivlik va diqqat yetishmasligi sindromi mavjud bolgan shaxslarda Ijtimoiy psixologik moslashganlik metodi ko'rsatkichlari va "siz o'zingizga qanday munosabatda bo'lasiz?" metodidan olingan natijalarnin o'rtasidagi o'zaro bog'liq yoki bog'liq emasligini ulardagi tafovutlarning o'ziga-xos xususiyatlarini o'rganish maqsadida korrelyatsion munosabat ko'rsatkichlarini ham tahlil etib o'tdik (2-jadval).

2-jadval

Ijtimoiy psixologik moslashganlik metodi ko'rsatkichlari va "siz o'zingizga qanday munosabatda bo'lasiz?" metodidan olingan natijalar o'rtasidagi korrelyatsion munosabat ko'rsatkichlari

	Shkalalar	Siz o'zingizga qanday munosabatda bo'lasiz?
1	Moslashganlik	-0,043
2	Moslashmaganlik	-0,165*
3	Soxtalik	0,105
4	O'z-o'zini qabul qilish	-0,046
5	O'z-o'zini qabul qilmaslik	-0,193*
6	Boshqalarni qabul qilish	-0,158*
7	Boshqalarni qabul qilmaslik	-0,282**
8	Emotsional komfort	0,013
9	Emotsional diskomfort	0,019
	Ichki nazorat	-0,021
	Tashqi nazorat	-0,194*
	Ustivorlik	-0,015
	Ergashuvchanlik	0,022
	Eskaplizm (muammodan qochish)	-0,132


Izoh: * $p \leq 0.05$; ** $p \leq 0.01$

Yuqoridagi jadvaldagi natijalardan asosiy maqsadimiz haqiqatdan ham DEGS o'smirlarning o'ziga bo'lgan munosabati ularning ijtimoiy-psixologik ko'rsatkichlariga ta'sir qilish yoki qilmasligini aniqlashdan iborat edi.

Bulardan ayon bo'ladiki, DEGS o'smirlarning o'ziga bo'lgan munosabati orqali Boshqalarni qabul qilmaslik, Tashqi nazorat, O'z-o'zini qabul qilmaslik,

Moslashmaganlik kabi sifatlari ham teskari yani salbiy tomonga rivojlanayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Agarda DEGS o'smirlarning o'z o'ziga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgartirilsa ijtimoiy-psixologik moslashganlikka oid bo'lgan sifatlari ham o'z-o'zidan rivojlanadi.




1-rasm. Siz o'zingizga qanday munosabatda bo'lasiz metodi orqali darajalarga ajratilgan natijalari

Yuqoridagi rasmdan ham ko'rinib turibdiki o'rta natijani qayd etganlar foiz ulushi juda ham yuqori 77%. O'ziga adekvat munosabat o'ziga nisbatan ijobiy munosabat, o'zini hurmat qilish, o'zini qabul qilish, o'zidan qoniqish hissi bilan tenglashtirish mumkin. Quyi natijani qayd etgan Giperaktivlik va diqqat yetishmasligi sindromi mavjud bo'lgan o'smirlarda esa bu 13 % ni tashkil etdi. Aksincha, o'ziga past munosabat o'ziga nisbatan salbiy munosabat, o'zini qabul qilmaslik, o'zidan qoniqmaslik hislari bilan tenglashtiriladi.

Keyingi so'nggi pog'onani qayd etgan yuqori darajali o'ziga bo'lgan munosabatli shaxslar 10 %ni tashkil etgan. O'ziga yuqori baho beruvchilar – o'z imkoniyatlarini haddan ortiq baholaydilar va shunga mos holda o'z oldilariga erishishga imkoniyati yetmaydigan, lekin erishishni orzu qiladigan maqsadlarni qo'yadilar. Ularda qadr-qimmat, g'urur, o'zini sevish kabi insoniy sifatlari ko'pincha teskari tomonga, ya'ni manmanlik, xudbinlik, o'ziga bino qo'yish kabilarga aylanib ketish ehtimoli yuqori bo'ladi.

D.Ya.Raygorodskiy o'ziga yetarlicha adekvat yuqori baho beradigan individlar ko'pincha stressogen ta'sirlarni emotsional jihatdan og'riqli deb qabul qilmasliklarini qayd etadi. Bundan tashqari u o'ziga munosabat masalasiga kengroq to'xtalib, batafsilroq yoritishga harakat qiladi. Uning fikriga ko'ra, yetarlicha adekvat yuqori baho beradigan odamlarning ijtimoiy ko'nikmalari o'ziga past baho beruvchilarga nisbatan anchayin taraqqiy etgan bo'ladi va natijada ular jamoaga tez moslashadilar. O'zini past baholaydigan kishilar esa aksincha, moslashuv ko'nikmalari past, moslashuv bilan bog'liq qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar.



2-rasm. Siz o'zingizga qanday munosabatda bo'lasiz metodi orqali darajalarga ajratilganlarning natijalari

Yuqoridagi rasmdan ham ko'rinib turibdiki o'rta natijani qayd etganlar foiz ulushi juda ham yuqori 77%. Bu kabi shaxslar o'zi bilan o'zi kelishib yashay oladi, o'zini va boshqalarni biladi va o'ziga ishonchi ham yuqori deb aytish mumkin. Shaxsiy xarakter sifatida ham, odamlar bilan bo'ladigan munosabatlarda ham qiyin vaziyatlardan chiqa olish yo'llarini topa olishdek qimmatli malakaga ega.

Quyi natijani qayd etgan Giperaktivlik va diqqat yetishmasligi sindromi mavjud bo'lgan shaxslarda esa bu 13 % ni tashkil etdi. Ular o'zidan norozi, o'z intellektidan, qobiliyatlaridan, xatti-harakatlaridan, tashqi ko'rinishidan, yoshidan, jinsidan, atrofida gilardan qoniqmaydi. Ularning o'ziga bo'lgan munosabatini, o'z-o'zini qabul qilish xususiyatini yaxshilashda maxsus rivojlantiruvchi dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi so'nggi pog'onani qayd etgan yuqori darajali o'ziga bo'lgan munosabatli shaxslar 10 %ni tashkil etgan. Ular o'zidan rozi va o'zini yaxshi qabul qiladi, o'z imkoniyat va qobiliyatlarini yuqori baholaydilar. Boshqalardan ustunlik qilishni, o'z «men»ini ta'kidlashni, o'z «men»ini alohida ajratib ko'rsatishni yoqtiradi, biroq o'zlarida boshqalarni tanqid qilishga moyilligi mavjud.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Barkley R. A. International consensus statement on ADHD // Clin. Child. Fam. Psychol. Rev 2002. №5. R. 21–27.
2. Bryazgunov I. P. Defitsit vnimaniya s giperaktivnostyu u detey. M. : Medpraktika, 2002.
3. Bryazgunov I. P. Neposedliviy rebenok, ili vse o giperaktivnix detyax. M. : Izd-vo Instituta Psixoterapii, 2001.
4. Gavrilushkina O. P., Golovchits L. A., Yegorova M. A. Psixologicheskiye aspekti spetsialnogo obra- zovaniya i novix korreksionnix programm i texnologiy // Psixologicheskaya nauka i obrazovaniye. 2001.№ 1. S. 79–88.
5. Zavadenko N. N. Diagnostika i differentsialniy diagnostika sindroma defitsita vnimaniya s giperaktivnostyu u detey // Shkolniy psixolog. 2000. №4. S. 2–6.
6. Zavadenko N. N. Giperaktivnost i defitsit vnimaniya v detskom vozraste.

M. : Akademiya, 2005.

7. Zavodenko N. N., Petruxin N. G., Manelis N. G. Shkolnaya dezadaptatsiya: psixonevrologicheskoye i neyropsixologicheskoye issledovaniye // Voprosi psixologii. 1999. № 4. S. 21–28.

8. Kasatikova YE. V., Bryazgunov I. P. Xarakteristika detey s sindromom defitsita vnimaniya i gipe- raktivnostio // Pediatriya. 2001. ch 2. S. 40–42.

9. Kasatikova YE. V., Larionov M. P., Bash L. V. Vliyaniye razlichnix sotsialnix faktorov riska na razvitiye sindroma defitsita vnimaniya s giperaktivnostio u detey // Meditsinskiy nauchniy i uchebno- metodicheskiy jurnal 2003. №16. S. 61–64.

10. Lyutova YE. K. Trening effektivnogo vzaimodeystviya s detmi. SPb. : Rech, 2000.

11. Nikolskaya I. M., Granovskaya R. M. Psixologicheskaya zashita u detey. SPb. : Rech, 2001.

12. Romanchuk O. I. Sindrom defitsita vnimaniya i giperaktivnosti u detey. M. : Genezis, 2010.

13. Sirotiyuk A. L. Sindrom defitsita vnimaniya s giperaktivnostyu. Diagnostika, korreksiya i prak- ticheskiye rekomendatsii roditelyam i pedagogam. M. : S Sfera, 2008.

14. Trufanova G. K. Problemi mejlichnostnix otnosheniy u detey s sindromom defitsita vnimaniya i giperaktivnostyu // Spetsialnoye obrazovaniye. 2014. №2. S. 50–56.

15. Xaletskeya O. V. Minimalnaya disfunktsiya mozga v detskom vozraste // Jurnal nevrologii i psi- xiatrii. 1998. № 9. S. 17–23.